

МАКТАБГАЧА ВА БОШLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI, O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

Tolibjonova Mehrangiz Akmaljon qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotasiya: Bugungi kunda chet tillarini o'rganish globallashib bormoqda. Chet tillarini o'rganish orqali ko'plab insonlar o'z bilimlarini, malakallarini va dunyoqarashlarini ke'g'aytirib borishmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini ya'ni ingliz tilini zamonaviy o'yinlar va yangi pedagogik texnologiyalar orqali qisqa vaqt oralig'ida tez, sifatli va qiziqarli usulda o'qitish uslublari haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, interfaol metodlar, o'yin turlari va ularning ahamiyati, noan'anaviy dars turlari, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning barcha o'quv fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'stirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o'z ona tilini o'rganayotgan, harflarni bir-biriga qo'shib, so'zlarni esa bir-biriga qo'shib gap yasashga o'rganayotgan, matnni ifodali o'qish qoidalari bilan tanishayotgan, matematik ifodalar bilan tanishib, qo'shish va ayirish amallarini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya berish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bilan birga ularning o'rab turgan borliq yuzasidan tushunchalarini o'stirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi. Ushbu metodlardan foydalanish, bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni, va ularni o'z fikrlarini, erkin bayon eta olish, dunyoqarashini kengaytirish uchun foydalaniladi.

O'yining ahamiyati. Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha xis tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdegilar bilan ijtmoiy

munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko`mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytilish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar . Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir [1].

Noan'anaviy dars turlari o'zining qiziqarliligi , sifatli ekaligi bilan an'anaviy metodlardan farq qiladi . Shu sababli ko'pchilik pedagoglar dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ko'proq noan'anaviy metodlardan foydalanishmoqda. Bugungi kunda noan'anaviy dars turlarining bir ko'rinishi bo'lgan interfaol metodlar nafaqat zamonaviy maktablar uchun balki, yuksak malakali o'qituvchilarni tayyorlash vazifasini bajarishda, va ushbu jarayonni tezlashtirib ta'lim sifatini oshirishga ham sharoit yaratadi. Quyida shu xususda so'z boradi

«Asalari galasi» metodi. Fan doirasiga qarashli bo'lgan biror bir muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo echimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.[2].

Vesi» -«Tarozi» texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarasi turli mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. (misol uchun ingliz tili grammatikasini ,yoki ingliz bayramlari haqida) bo'lishi mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikriy tajribalarni yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda qilib ifodalaydilar va o'z fikrlarini himoya qiladilar. Qaysi guruh ishonarli qilib ko'proq dalillar keltirsa, o'sha guruh g'olib deb sanaladi. Bu texnologiya o'quvchilarda bilimni ishonchli va munozara qilib madaniyatini rivojlantiradi. O'yinlar turli maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Didaktik maqsadi – bilim doirasini amaliy faoliyatida rivojlantirish. Tarbiyaviy maqsadi – irodani mustaxkamlash. O'quvchilarni jamoatga kirishib ketishiga, bir-birlarini fikrlarini tinglashga va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Rivojlantiruvchi maqsad – diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qobiliyat kabi fiziologik usuliyatlarini rivojlantiradi. Mavzu echimini topa olish faoliyatini rivojlantiradi.

“Categories game”- O'quvchilar bu o'yinni bir marta o'ynaganlaridan keyin har safar yana o'ynashlarini iltimos qiladigan bo'lib qoladi! Yana bu o'yin ortib qolgan

1
2

daqiqalardan unumli foydalanish uchun ajoyib usul. Har bir o`quvchingizga qog`ozga bta ustun chizishlarini so`rang. Siz kategoriya (so`z uchun mavzu)ni oxirgi o`tilgan mavzulardan tanlashingiz mumkin. Eng ko`p qo`llaniladigan kategoriyalar oziq-ovqat (food) ismlar (names), shaharlar yoki davlatlar (city and country), mebellar (furniture), ish harakat (work or Actions) yoki kiyimlar (clothes)larning ingliz tilida qanday nomlanishi yoziladi. Biror istalgan harfni tanlang va uni doskaga yozing. O`sha harf bilan boshlanuvchi so`zlarni ustunlarga yozib chiqishlari uchun o`quvchilaringizga biroz vaqt beriladi. Siz boshqa harflar bilan o`yinni istalgancha qaytadan boshlashingiz mumkin.

Xulosa qilib aytmoqchimaki, biz dasr mashg`ulotlarini sifatli barcha uchun tushunarli va qulay usulda tashkil etmoqchi bo`lsak biz darslarda o`quvchilarning bilim olish salohiyatidan kelib chiqib ularga turli xil qiziqarli o`yinlar, tarqatma materiallari, eng asossiyi yangi ped texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов, Л. С. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o`rgatishda ta`limiy o`yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar / Л. С. Юсупов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 26 (316). — С. 339-343. — URL: <https://moluch.ru/archive/316/72186/>.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati <https://azkurs.org/zamonaviy-pedagogik-texnologiyalar-va-uning-bugungi-kundagi-za.html>.
3. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-o`yinlar>.